



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORXONALARIDA ISO 9001:2015 STANDARTINI JORIY ETISHDAGI TO'SIQLAR VA DAVLAT IMTIYOZLARI SAMARADORLIGI TAHLILI

Safarova Gulruh Akmal qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

E-mail: gulruhsafarova0116@gmail.com

ORCID: 0009-0002-4020-7826

Tel: +998995517903

Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li

PhD Bank ishi kafedrasida katta o'qituvchisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: b.maqsudov@tsue.uz

ORCID: 0000-0002-5821-6221

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20389291>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-may 2026 yil

Ma'qullandi: 24-may 2026 yil

Nashr qilindi: 26-may 2026 yil

KEYWORDS

ISO 9001:2015, sifat
menejmenti tizimi,
sertifikatlash, O'zbekiston,
davlat imtiyozlari,
raqobatbardoshlik,
standartlashtirish.

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasi korxonalarida ISO 9001:2015 xalqaro sifat menejmenti standartini joriy etish jarayonidagi amaliy to'siqlar va davlat imtiyozlarining samaradorligi aralash metodologiya asosida tahlil qilingan. O'zstandart agentligining 2022-yil rasmiy statistik ma'lumotlari, oltita asosiy normativ-huquqiy hujjat va xalqaro peer-reviewed jurnallardagi tadqiqotlar tahlil qilindi. Natijalar mahalliy korxonalar duch keladigan to'siqlarni besh asosiy toifaga ajratish mumkinligini ko'rsatdi: moliyaviy, tashkiliy-madaniy, hujjatlashtirish, inson resurslari va mintaqaviy moslashuv to'siqlari. Davlat imtiyozlari ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, 2022-yilda 645 ta korxonaning sertifikatlanganligi past ko'rsatkichdir. Tadqiqot O'zbekiston kontekstidagi ilmiy bo'shliqni qisman to'ldirib, SMTni joriy etishni jadallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni beradi.

Globalashuv jarayonida xalqaro savdoning kengayishi va iste'molchi talablarining murakkablashuvi sifat menejmenti tizimlarini (SMT) joriy etish zaruriyatini kuchaytirgan asosiy omillardan biriga aylandi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan 1987-yilda ishlab chiqilgan ISO 9000 oilasi standartlari hozirgi kunda dunyoning 170 dan ortiq mamlakatida tan olingan va bir milliondan ortiq tashkilot tomonidan foydanilmoqda [9]. Ushbu standartlar mahsulot sifatini ta'minlash bilan birga, tashkiliy boshqaruvning asoslaridan biri sifatida ham qaraladi[6].

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi uchun xalqaro sifat standartlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, eksport salohiyatini oshirish, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish istiqbollari va milliy korxonalarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash zarurati ISO 9001 standartini joriy etishni nafaqat tijoriy, balki milliy iqtisodiy zaruriyat darajasiga ko'tarmoqda.

2017-yildan boshlab e'lon qilingan iqtisodiy modernizatsiya jarayoni standartlashtirish sohasini ham qamrab oldi, natijada 12 mingdan ortiq standart qabul qilindi va 400 turdagi mahsulotni sinovdan o'tkazish yo'lga qo'yildi [15].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar ko'rsatadiki, ISO 9001 standartini joriy etish ko'plab to'siqlar bilan kechadi: yuqori xarajatlar, hujjatlashtirish murakkabligi, xodimlarning o'zgarishlarga qarshiligi va sertifikatlashdan keyingi majburiyatni saqlash muammosi shular jumlasidandir [6, 18]. Biroq, bu masalalar O'zbekiston sharoitida tizimli va empirik tarzda yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi — O'zbekiston Respublikasi korxonalarida ISO 9001:2015 standartini tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan amaliy to'siqlar va davlat tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozlarning samaradorligini empirik ma'lumotlar va normativ-huquqiy baza tahlili asosida baholashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Zamonaviy sifat menejmenti konsepsiyasi 20-asrning ikkinchi yarmida klassik nazariyotchilar tomonidan shakllantirildi. W. Edwards Deming [3] sifat menejmenti uchun 14 ta tamoyilni ishlab chiqdi va PDCA (Plan-Do-Check-Act) siklini joriy etdi. Joseph M. Juran [10] sifatni "foydalanishga yaroqlilik" sifatida ta'riflagan va sifat trilogiyasi modelini taklif etgan. Armand V. Feigenbaum [4] "umumiy sifat nazorati" kontsepsiyasini, Philip B. Crosby [2] esa "nol nuqson" tamoyilini ishlab chiqdi. Ushbu klassik nazariyalar ISO 9000 oilasining metodologik asosini tashkil etdi.

So'nggi yilliklarda ISO 9001 sertifikatining tashkiliy samaradorlikka ta'siri xalqaro miqyosda keng o'rganildi. Heras-Saizarbitoria va Boiral [6] sistematik adabiyotlar sharhini o'tkazib, sertifikatning real ta'siri ko'pincha tashkilot motivatsiyasiga bog'liqligini ko'rsatdilar. Ichki motivatsiyaga ega tashkilotlar tashqi motivatsiyaga ega bo'lganlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori samaradorlikka erishadi. Sampaio, Saraiva va Rodrigues [18] Portugaliya korxonalarida misolida ISO 9001 sertifikati moliyaviy ko'rsatkichlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmasa-da, jarayonlarni standartlashtirish va mijozlar qoniqishi orqali bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladilar. Psomas va boshqalar [17] Yunoniston xizmat ko'rsatish sohasidagi 100 ta ISO 9001 sertifikatlangan kompaniya ma'lumotlari asosida ISO 9001 ning samaradorlikka ta'siri ichki sifat madaniyati orqali vositachilik qilishini ko'rsatdilar.

Boiral [1] sertifikatlash jarayonining "marosimiy" tabiatiga e'tibor qaratib, ba'zi tashkilotlar standart talablarini faqat hujjatlar darajasida bajarib, real amaliyotda uni qabul qilmasligini tanqid qildi. Magd va Curry [11] Misr misolida hukumat siyosatining sertifikatlash dinamikasiga muhim ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdilar. O'zbekistonda ISO 9000 bo'yicha mahalliy adabiyotlar asosan o'quv qo'llanmalari shaklida mavjud bo'lib, ulardagi tahlil ko'pincha tavsifiy xarakter kasb etadi. Xabibov [20] milliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish kontekstida SMTni tahlil qilgan bo'lsa-da, davlat imtiyozlari va to'siqlarning interaktiv ta'siri yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda **izohlovchi aralash metodologiya** (explanatory mixed-methods design) qo'llanildi [21]. Bu yondashuv ikki bosqichli tahlilni nazarda tutadi: birinchi bosqichda miqdoriy ma'lumotlar (statistik ko'rsatkichlar), ikkinchi bosqichda sifat ma'lumotlari (normativ-huquqiy hujjatlar va adabiyotlar) tahlil qilinadi. Tadqiqotda uchta asosiy ma'lumot manbasidan foydalanildi: (1) O'zstandart agentligining 2022-yil rasmiy statistik ma'lumotlari [16]; (2) O'zbekiston Respublikasining oltita asosiy normativ-huquqiy hujjati (Soliq Kodeksi 356-moddasi,

PF-6240-son Farmoni, PQ-1731-son Qarori, VMQ-349, VMQ-173 va VMQ-154); (3) Web of Science va Scopus bazalarida indekslangan akademik adabiyotlar. Tahlil usullari sifatida kontent-tahlil, deskriptiv statistik tahlil va tematik sintez metodlari qo'llanildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun triangulyatsiya usulidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

Sertifikatlash dinamikasi va tarmoqlar tahlili

O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakatdagi 645 ta korxonada 1065 ta sifat menejmenti tizimlari sertifikatlari rasmiylashtirilgan [16]. Bir korxonaga o'rtacha 1,65 ta sertifikat to'g'ri kelishi shuni ko'rsatadiki, korxonalar nafaqat ISO 9001 (sifat), balki ISO 14001 (ekologiya), ISO 45001 (mehnat xavfsizligi) va boshqa standartlarni ham parallel ravishda joriy etmoqda. Sertifikatlash 16 ta akkreditatsiya qilingan organ tomonidan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yengil sanoat sohasida Oeko-Tex (72 ta korxonada), Sedex (6 ta) va BSCI (2 ta) standartlari bo'yicha sertifikatlash yo'lga qo'yilgan.

1-jadval. O'zbekistonda tarmoqlar kesimida xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirilgan standartlar soni (2022-yil)

No	Tarmoq	Standartlar soni	Ulushi (%)
1	Boshqa sohalar	5 224	36,9
2	Oziq-ovqat sanoati	2 154	15,2
3	Elektrotexnika	1 467	10,4
4	Kimyo texnologiyalari	1 374	9,7
5	Neft va gaz	1 354	9,6
6	Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya	1 124	7,9
7	Metallurgiya	833	5,9
8	To'qimachilik va charm	638	4,5
9	Jami	14 168	100,0

Manba: O'zstandart (2023) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, oziq-ovqat sanoati va elektrotexnika tarmoqlari xalqaro standartlarga uyg'unlashish bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Bu tarmoqlarning eksportga yo'naltirilganligi va xalqaro xaridorlarning qat'iy sifat talablari bilan izohlanishi mumkin. Aksincha, to'qimachilik tarmog'ining nisbatan past ulushi (4,5%) bu sektor uchun qo'shimcha rag'batlantirish chora-tadbirlari zarurligini ko'rsatadi.

Joriy etishdagi to'siqlar tasnifi

Adabiyotlar sharhi va normativ hujjatlarning kontent-tahlili asosida O'zbekiston kontekstiga mos to'siqlarning tizimli klassifikatsiyasi shakllantirildi (2-jadval).

2-jadval. ISO 9001:2015 ni O'zbekistonda joriy etishdagi to'siqlar tasnifi

To'siq toifasi	Asosiy ko'rinishlari	Ta'sir darajasi
Moliyaviy	Maslahatchi xizmatlari; audit to'lovlari; xodimlarni o'qitish	Yuqori (KO'K uchun)
Tashkiliy-madaniy	Xodimlarning qarshiligi; korporativ madaniy nomuvofiqligi	O'rta
Hujjatlashtirish	Keng qamrovli hujjatlar; protseduralar; qay yuritish	O'rta-yuqori
Inson resurslari	Malakali ekspertlar yetishmasligi; kadrl almashinuvi	O'rta
Mintaqaviy-madaniy	Mahalliy biznes amaliyotiga moslashtirish; to'siqlari	Past-o'rta

Manba: Adabiyotlar sharhi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan [1, 6, 11].

Davlat imtiyozlari tizimining tahlili

O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy bazasi tahlili shuni ko'rsatdiki, davlat sifat menejmenti tizimini joriy etgan korxonalar keng spektrli imtiyozlar tizimini yaratgan (3-jadval). Tahlil ko'rsatadiki, imtiyozlar tizimi to'rtta asosiy yo'nalishni qamrab oladi: (1) to'g'ridan-to'g'ri soliq imtiyozlari; (2) bojxona imtiyozlari; (3) tender savdolaridagi afzallik; (4) maxsus dasturlarga qatnashish huquqi.

3-jadval. ISO sertifikatlangan korxonalar uchun davlat imtiyozlari tizimi

No	Normativ hujjat	Imtiyoz turi	Manfaatdor tomonlar
1	Soliq Kodeksi, 356-modda	Soliq bazasini 25% gacha kamaytirish (5 yil)	Barcha SMT joriy etayotgan korxonalar
2	PQ-1731 (2012)	Yagona soliq to'lovi imtiyozi	Mikrofirma va kichik korxonalar
3	VMQ-349 (2004)	Bojxona to'lovlaridan ozod qilish	Sinov laboratoriyalariga ega korxonalar
4	VMQ-173 (2009)	Davlat tenderlarida ustunlik	Sertifikatlangan mahalliy yetkazib beruvchilar
5	VMQ-154 (2010)	Mahalliyashtirish dasturlarida afzallik	Eksport ishtirokchilari

Manba: O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari [14] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Muhokama

Olingan natijalar xalqaro adabiyotlarda aniqlangan tendensiyalar bilan asosan mos kelmoqda. Heras-Saizarbitoria va Boiral [6] ko'rsatgan motivatsiya muammosi O'zbekistonda ham dolzarbdir: davlat tenderlari va eksport bozorlarining talabi tashqi motivatsiya yaratayotgan bo'lsa, ichki motivatsiya (sifatni haqiqatan yaxshilash istagi) ko'plab korxonalarda hali yetarli

darajada shakllanmagan. Bu holat Boiral [1] tomonidan tasvirlangan “marosimiy sertifikatlash” xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Tarmoqlar kesimidagi notekis taqsimot (oziq-ovqat va elektrotexnikaning yetakchiligi) Magd va Curry [11] Misr misolida aniqlagan tendensiya bilan o'xshash: eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar standartlashtirish bo'yicha doimo oldinda boradi. O'zbekistondagi imtiyozlar tizimining muhim jihatlaridan biri shundaki, u 2004-yildan boshlab izchil rivojlanib kelmoqda. Bu holat davlatning sifat menejmenti tizimlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha uzoq muddatli strategik yondashuvini aks ettiradi. Xususan, soliq solinadigan bazani 25% gacha kamaytirish imkoniyati ancha kuchli moliyaviy rag'bat hisoblanadi. Shunga qaramay, sertifikatlangan korxonalar sonining 645 tani tashkil etishi mamlakatdagi umumiy korxonalar soni bilan solishtirganda nisbatan past ko'rsatkich hisoblanadi. Jumladan, 2022-yilda ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 500 mingdan ortiq bo'lganini inobatga olganda, ISO 9001:2015 sertifikatiga ega korxonalar ulushi yetarli darajada yuqori emasligi kuzatiladi.

Davlat imtiyozlarining kuchli tomonlari: normativ-huquqiy bazaning izchilligi, imtiyozlarning korxonalar iqtisodiyotiga bevosita ta'siri, tender savdolaridagi ustunlik orqali bilvosita talab yaratilishi. **Zaif tomonlari:** imtiyozlarning asosan moliyaviy va soliq xarakterga ega bo'lishi, sifat menejmenti madaniyatini shakllantirishga qaratilgan rag'batlantirish vositalari yetishmasligi (treninglar uchun subsidiya, ekspert maslahatlari uchun yengilliklar), imtiyozlardan foydalanish protseduralari haqida axborot kampaniyalarining yetarli emasligi, sertifikatdan keyingi “barqarorlik” davrida monitoring mexanizmlarining cheklanganligi.

Xulosa va tavsiyalar

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda sertifikatlash dinamikasi ijobiy tendensiyaga ega bo'lsa-da, mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatiga nisbatan sertifikatlangan korxonalar ulushi kamligicha qolmoqda. Joriy etishdagi to'siqlar besh asosiy toifaga ajratiladi va xalqaro adabiyotlardagi tendensiyalar bilan asosan mos keladi, lekin O'zbekiston sharoitida o'ziga xos jihatlarga ega. Davlat imtiyozlari tizimi to'rtta yo'nalishni qamrab olgan va 2004-yildan beri izchil rivojlanmoqda.

Korxonalar uchun tavsiyalar: (1) ISO 9001 standartini faqat sertifikat olish vositasi sifatida emas, balki korxonada barqaror sifat madaniyatini shakllantirish mexanizmi sifatida qabul qilish; (2) standartni tatbiq etish jarayonida yuqori boshqaruvning faol va to'liq ishtirokini ta'minlash; (3) sertifikatlashdan keyingi bosqichda ham doimiy takomillashtirish jarayonlarini uzluksiz davom ettirish.

Davlat siyosati uchun tavsiyalar: (1) mavjud moliyaviy imtiyozlar tizimini saqlab qolgan holda, axborot va konsalting xizmatlariga subsidiyalar shaklidagi qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish; (2) kichik va o'rta biznes uchun maxsus dastur ishlab chiqish; (3) milliy sertifikatlashtirish organlarining xalqaro miqyosdagi tan olinishi va akkreditatsiyasini kuchaytirish; (4) sifat menejmenti yo'nalishida milliy kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini rivojlantirish.

Yakunda shuni ta'kidlash kerakki, ISO 9001:2015 standarti shunchaki normativ talablar to'plami emas, balki tashkilot va davlat darajasidagi strategik vositadir. Uning O'zbekistonda samarali joriy etilishi nafaqat korxonalarning xalqaro raqobatbardoshligini, balki butun mamlakatning eksport salohiyati va iqtisodiy modernizatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boiral, O. Managing with ISO systems: Lessons from practice // Long Range Planning. — 2011. — Vol. 44, No. 3. — P. 197–220.
2. Crosby, P. B. Quality is free: The art of making quality certain. — New York: McGraw-Hill, 1979. — 270 p.
3. Deming, W. E. Out of the crisis. — Cambridge: MIT Center for Advanced Engineering Study, 1986. — 507 p.
4. Feigenbaum, A. V. Total quality control. 3rd ed. — New York: McGraw-Hill, 1983. — 851 p.
5. Harrington, H. J. Quality management in American corporations. — Moscow: Economics, 1990. — 272 p.
6. Heras-Saizarbitoria, I., Boiral, O. ISO 9001 and ISO 14001: Towards a research agenda on management system standards // International Journal of Management Reviews. — 2013. — Vol. 15, No. 1. — P. 47–65.
7. International Organization for Standardization. ISO 9000:2015 — Quality management systems — Fundamentals and vocabulary. — Geneva: ISO, 2015.
8. International Organization for Standardization. ISO 9001:2015 — Quality management systems — Requirements. — Geneva: ISO, 2015.
9. International Organization for Standardization. The ISO survey of management system standard certifications [Elektron resurs]. — URL: <https://www.iso.org/the-iso-survey.html>
10. Juran, J. M. Juran on planning for quality. — New York: The Free Press, 1988. — 341 p.
11. Magd, H., Curry, A. An empirical analysis of management attitudes towards ISO 9001:2000 in Egypt // The TQM Magazine. — 2003. — Vol. 15, No. 6. — P. 381–390.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6240-son Farmoni [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-5443205>
13. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. 356-modda [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz>
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy qonunchilik tizimi [Elektron resurs]. — URL: <https://www.lex.uz>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [Elektron resurs]. — URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7051>
16. O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi (O'zstandart): Sifat menejmenti tizimi sertifikatlash statistik ma'lumotlari [Elektron resurs]. — URL: <https://www.standart.uz>
17. Psomas, E. L., Pantouvakis, A., Kafetzopoulos, D. P. The impact of ISO 9001 effectiveness on the performance of service companies // Managing Service Quality. — 2013. — Vol. 23, No. 2. — P. 149–164.
18. Sampaio, P., Saraiva, P., Rodrigues, A. G. ISO 9001 certification research: Questions, answers and approaches // International Journal of Quality & Reliability Management. — 2009. — Vol. 26, No. 1. — P. 38–58.
19. Ro'ziyeva, D. I. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. — 268 b.
20. Xabibov, M. O'zbekistonda sifat menejmenti tizimini joriy etish orqali milliy korxonalarimizning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari // International Journal of Finance and Digitalization. — 2023. — Vol. 2, No. 1.

21. Creswell, J. W., Plano Clark, V. L. Designing and conducting mixed methods research. 3rd ed. — Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2018. — 520 p.



INNOVATIVE
ACADEMY